

2024
1-son

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

Sirojiddin Toshpulatov.		Shoista Muratova.	
Umumiy o'rta ta'lif maktablari o'quv dasturida Futbol darsining ahamiyati	438	Emotsional hissiy hoatlarning tuzilishi va ularning nerv-fiziologik asoslari	503
Маликахон Арипходжаева, Урхияна Турабекова, Мусулмон Баротов, Дилфуза Хикматиллаева.		Nargizabonu Abirova.	
Геологические чрезвычайные ситуации, прогнозирование мониторинг и ликвидация	441	Improving the efficiency of investment activities in railway transport enterprises of the Republic of Uzbekistan	507
Tursunoy Bo'riyeva.		Zohida Qodirova.	
Bolalarda tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish tamoyillari	444	Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali omillari	510
Сарвиноз Салимова, Озода Джумаева.		Moxira Raxmatullayeva.	
Методическая разработка и ее критерии	447	Semiconductors and work with them.....	512
Nilufar Bo'riyeva.		Shafoat Eshonqulova.	
Pedagogik nizolarni boshqarishga oid olib borilagan ilmiy tadqiqotlar sharhi	451	Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni o'rganish metodikasi	515
Barkamoljon Pirmatov.		Dildora Umarova.	
Kasbiy ta'lif tizimidagi innovatsiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	454	Creative design and web art	518
Feruza Tursunova.		Ravshan Shaynazarov.	
"Vuca-dunyo" narrativlari sharoitida 7-sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni	458	Mutaxassislik fanlarni o'qitishda 3D modellashtirish dasturlari va ulardan foydalanish ahamiyati	521
Sarvinoz Salimova, Mehriniso Makhmudova.		Sayera Azizova, Nargiza Musadjanova.	
Innovative information technologies in modern educational process.....	460	Methodology for the development of visual-graphic competencies of specialists in a hybrid educational environment on the basis of didactic requirements (on the example of students of the technical direction)	524
Elyor Kurbanov.		Kaxramon Turaev, Axam Togasharov, Shuxrat Mumatov, Mizamitdin Samadov.	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ma'nnaviyatini shakllantirish masalasi va unga qo'yilgan talablar	463	Изучение растворимости системы, состоящий из гидроксида натрия – монохлоруксусной кислоты – вода	527
Umriniso Ergasheva.		Nilufar Sirojiddinova.	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida milliy qadriyatlар asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yishning nazariy asoslari.....	467	Maktabgacha tayyorlov yoshdag'i bolalarni atrof muhitga munosabati shakllantirishning samarali metod, shakl va usullari	530
Oyshajon Usmonova.		Nargiza Diyorova.	
The importance of language translation within the context of human rights: English to Uzbek.....	469	The standard forms and methods of teaching in Russian language lessons	534
Динара Сримбетова.		Xolbek Raimov, Malohat Musurmanova.	
Худудларда саноатни ривожлантиришда инновацион фаолият механизмларини таомиллаштириш (Тошкент шаҳри мисолида).....	472	Laplas operatorining sferik koordinata sistemasiga o'tish bosqichlari	536
Gulkhan Genjemuratova.		Zukhra Sultanova.	
System of professional training for students in Higher Education Institutions based on an integrative approach to organic chemistry.....	476	Information technology their effective use in foreign country ..	540
Shaxnoza Xojimirzayeva.		Dilshoda Gafurova.	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirish bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi.....	479	The effectiveness of innovation management methods in universities	543
Bog'dagul Qarshiyeva.		Iroda Turanova.	
Muammoli metoddan foydalangan holda texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini oshirish	482	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash samaradorligini oshiruvchi metodlar....	545
Zoirxo'ja O'lmasxo'jayev.		Laziza Xakimova.	
Globallashuv sharoitida jamiyat xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy tarmoqlardagi oavlarning o'rni	485	Different foreign language wide involvement among students.....	549
Noila Mustafayeva.		Jahongir Abduraxmonov.	
Enhancing EFL student's writing skills using multimodal technologies	488	Talabalarning texnika xavfsizligiga oid bilimlarini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	551
Manzura G'ofurovna.		Khabiba Alimukhamedova.	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarni ijodiy rivojlantirish texnologiyalari	491	A comparative typological study of verbs expressing human behavior	556
Dinara Mirtursunova.		Dilafro'z Jo'rayeva.	
Fortifying stability: enhancing credit risk management in banking institutions.....	494	Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarini STEAM o'qitish texnologiyasi asosida intellektual qobiliyatlarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari	559
Janibek Suyenshiyev.		Gulchekhra Razzakova.	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion ta'lif texnologiyalar asosida o'qitish.....	497	Pedagogical science and educational process in English.....	563
Feruza Tursunova.		Dilmurod Xolmurodov.	
7-sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish	499	Texnika ixtisoliklarida "Materialshunoslik va konstruksion materiallarni texnologiyasi" fanini o'qitishda innovatsion ta'lif texnologiyalaridan foydalanish uslublari	565

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablARI O'QUV DASTURIDA FUTBOL DARSINING AHAMIYATI

Sirojiddin Toshpulatov,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Zamonaviy futbol milliardlab insonlarning kundalik turmush tarzida muhim ahamiyatli sport turiga aylangan. Futbolni rivojlantirish borasida jahon mamlakatlari va yurtimizda olib borilgan ishlar hamda futbolni rivojlantirishda umumta 'lim tizimi bilan hamkorlik zarur omil hisoblanadi. ushbu maqolada maktab o'quv faoliyatida jismoniy tarbiya darslarida futbol darslarini tashkil etish va ularni samarali tashkil etish bo'yicha bir qator tavsiyalar ko'rib chiqiladi. Maktab jismoniy tarbiya faoliyatini tashkil etishda futbol darslari va to'garaklarni rivojlantirish va samarali tashkil etish haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya tizimi, futbol to'garaklari, futbol maydoni, psixofunksional tayyorgarligi, futbol maktablar ligasi, futbol darslari, saralab olish.

Аннотация

Современный футбол стал важным элементарным видом спорта в повседневной жизни миллиардов людей. Необходимым фактором развития футбола является работа, проводимая в странах мира и в нашей стране, а также сотрудничество с системой общего образования. В данной статье будет рассмотрен ряд рекомендаций по внедрению уроков футбола на уроках физкультуры в школьную образовательную деятельность и их эффективной организации. Даны рекомендации по развитию и эффективной организации занятий по футболу и кружков при организации школьной физкультурной деятельности.

Ключевые слова: система физического воспитания, футбольные кружки, футбольное поле, психофункциональная подготовка, футбольная Школьная лига, уроки футбола, выбор.

Annotation

Modern football has become an important Achaemenid sport in the daily lifestyle of billions of people. A necessary factor in the development of football is the work carried out in the countries and countries of Jahan and cooperation with the general education system in the development of football. This article will consider a number of recommendations for the study of football lessons in physical education lessons in school educational activities and their effective organization. When organizing school physical education activities, recommendations were made on the development and effective organization of football classes and clubs.

Keywords: physical education system, football clubs, football field, psychofunctional training, Football Schools League, football lessons, selection.

Futbol o'zining tom ma'nodagi mohiyati va mazmuni bilan o'ta demokratik xususiyatga ega sport o'yinlari turlariga mansubdir. Uning demokratik xususiyati shundan iboratki, ushbu o'yin maydoni 120-90 m-li shaklga ega bo'lib, shu maydonning qoq o'rtasidan ikki mustaqil maydonga bo'linadi. Ikki maydonda joylashgan raqib jamoalari o'yinchilari maydonda o'z joylari, ya'ni (pozitsiyalar) bo'yicha joylashib turadilar, boshqacha qilib aytganda, bir biriga raqib o'yinchilar o'zar to'qnash (kontakt) tarzda harakat qiladilar. Futbol bilan ommaviy shug'ullanish uchun o'yin maydonini istalgan ochiq yoki yopiq tekislikda barpo etish mumkin. Boz ustiga ommaviy futbol uchun q'llanadigan jihoz va uskunalar juda kam xarakatdir. Qolaversa bu uskunalar qo'l bola usulda ham tayyorlanish mumkin. Shuning uchun ham futbol yer yuzida eng ommaviy sport turi tarkibiga kiradi. Mustaqil mamlakatimiz taraqqiyotining so'ngi yillarida birinchi prezidentimizning xalqchil siyosati va uning bevosita rahbarligida kashf etilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga hamohang bo'lgan "Umid nihollari, "Barkamol avlod", "Universida" kabi uzlusiz hamda ko'p pog'onali ommaviy sharq musobaqalari dasturidan futbol o'yining mustahkam joy

olishi fikrimiz dalilidir [6,68-69].

Alovida ta'kidlash joizki, futbol inson sog'ligi, uning jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarini shakllantiruvchi eng samarali va universal vosita sifatida nafaqat professional hamda ommaviy sport musobaqalari dasaturiga kiritilgan, balki o'quvchi yoshlarda shu sport turingning nazariy mohiyatini chuqur tushunish zarurligi tu-fayli uning ta'lif muassasalari o'quv rejasidan majburiy fan sifatida joy olib, azaldan faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Sobiq "Ittifoq" davrida ham tayanch sport turlari bo'lmish futbol, basketbol, voleybol, gimnastika, yengil atletika, suzish suzish umumiy o'rta ta'lif maktablari o'quv rejalariga jismoniy tarbiya fanlari sifatida kiritilib, ulardan dars sifatida foydalanilgan.

Sport turlaridan tashkil topgan jismoniy tarbiya darslariga qo'yiladigan talablar rejalashtiruv hujjatlari, jismoniy tarbiya darslarining turlari, haftalik, chorak va o'quv yili bo'yicha belgilangan hajmlari, "Baholovchi" me'yoriy mashqlar "Markazda" ishlab chiqilib, barcha "ittifoqdosh" respublikalar maktablari uchun majburiy bo'lgan. Eng afsuslanarli joyi shundaki, mazkur o'quv hujjatlarining ishlab chiqilishi uchun o'tkaziladigan tajribalar asosan, Ros-

siya maktablari o‘quvchilarida sinab ko‘rilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri barcha respublikalar maktablari qo‘llanilishi qonun tusiga kirgan edi. O‘quvchilarning etnogenetik, jismoniy va psixofunksional xususiyatlari “markaz” olimlarini aslo qiziqtirmagan.

So‘nggi yillarda xalqimizning salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o‘yini bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalgalashirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iq-tidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarini tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo‘yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaxshilash, o‘tkazilayotgan musobaqalar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda [5,64-65]. Maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyalanuvchilarini futbolga qiziqtirish uchun futbol bo‘yicha o‘yin shaklida ko‘rgazmali darslarni tashkil etish. Maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyalanuvchilar o‘rtasida doimiy tarzda futbol bo‘yicha festivallar va qiziqarli ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazish. Umumta’lim maktablari o‘rtasida har bir tuman (shahar)da doimiy ravishda yiliga kamida ikki marotaba “Maktablar futbol ligasi” musobaqalarini o‘tkazib borish[4,215]. “Maktablar futbol ligasi” musobaqalarini o‘tkazish natijalari bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilarni tuman (shahar) bolalar-o‘smirlar sport maktablaring futbol bo‘linmalari hamda xususiy futbol maktablariiga saralab olish (seleksiya) tizimini yo‘lga qo‘yish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini futbolga qiziqtirish uchun futbol bo‘yicha o‘yin shaklida ko‘rgazmali darslarni tashkil etilishini muntazam yo‘lga qo‘yish, festivallar va qiziqarli ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazish oldimizga qo‘yilgan yuksak maqsadlar sanalib kelinmoqda [3,57]. Ko‘pchiligidan maktab futboli orqali millionlar o‘yiniga mehr qo‘yganmiz. Mamlakatimizda ta’lim sohasida jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda, futbol maktablari soni ortmoqda. Ushbu ta’lim maskani o‘quvchilari xalqaro turnirlarda qatnashishyapti, o‘z kejajaklarini qurishyapti. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagagi 173-son Qarori bilan tasdiqlangan “Futbol bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari to‘g‘risida”gi Nizom maktabdagi futbolni rivojlantirish uchun emas, aksincha, futbol maktablari sifatini yanada oshirish yo‘lidagi huquqiy asosdir [1,2-ilova].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2019-yil 19-martda “Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san‘at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishni oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalgalashirish to‘g‘risida” o‘tkazilgan videoelektor majlisi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek,

yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarni sportga keng jalb etish, ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullantirish samaradorligini yanada oshirish borasida O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Markaziy kengashi ko‘plab sport tadbirlari o‘tkazib kelmoqda.

Faqat mustaqillik sharofati tufayli 2021-yilda “Ta’lim to‘g‘risida” va 2015-yil 4-sentyabrda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori kabi qonunlar qabul qilindi. Aynan qayd etilgan hujjatlar kadrlar tayyorlash milliy dasturining ajralmas mantiqiy qismi sifatida barcha ta’lim muassasalarini, shu jumladan, o‘rta umumta’lim maktablari o‘quv rejalaridan muhim o‘rin olgan jismoniy tarbiya va sport faning maqomi va salohiyatini yanada ko‘taradi hamda ushbu jarayonni yanada shakllanishiga yo‘l ochib beradi. Azaldan ma’lumki, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining asosiy vazifasi faqatgina shu darsni mazmunli va samarador o‘tkazish emas, balki sport turlari va xususan futbol o‘yini malakalaridan tarkib topgan jismoniy tarbiya darslari davomida bolalarni qaddi-qomati, bo‘yi, jismoniy sifatlariga qarab, ularni sport ixtisosliklarga yo‘naltirish, asosli bashorat yordamida muayyan sport turiga jalb qilishdan iboratdir. Ehtimol ana shu g‘oyaga asoslangan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori bilan tasdiqlangan jismoniy tarbiyadan umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturida futbol fani 4-sinfdan boshlab kiritilgan. Ta’lim tizimida ulkan islohotlarning amalgalashirishi, olimlarni samarali izlanishlari natijasida so‘ngi yillarda umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun davlat ta’lim standartlari dasturlar va metodik qo‘llanma hamda darsliklar yaratila boshlandi. Umumta’lim o‘rta maktablarida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil qilish va o‘tkazish uslubiyati Y.M.Yunusova tomonidan atroficha yoritilib berilgan. Jumladan maktablarda jismoniy tarbiyani tashkil qilish shakllari qatorida shu jarayonining dars shakliga alohida urg‘u berilgan. Muallif jismoniy tarbiya darsini mustaqil fan sifatida o‘quv rejasiga binoan 1 o‘quv yilida 68 akademik soat hajimda (45 daqiqlik) o‘tilishiga ya‘ni haftasiga 2 soatdan tashkil etilishi shartligiga e’tibor qaratadi. Har bir haftada jismoniy tarbiya darsi teng taqsimlanishi zarurligini uqtirib o‘tadi.

Uning fikricha ushbu darslarni birinchi yoki oxirgi soatlarga rejalashtirish maqsadga muvofiq emasligi, ayniqsa, ketma-ket (Seshanba-chorshanba) rejalashtirilishi umuman noto‘g‘ri. Shu bilan birga bir qatorda shuni ham e’tirof etish joizki ta’lim muassasalarida ayniqsa, umumta’lim o‘rta maktab o‘quvchilari bilan haftasiga 2 soat hajmda jismoniy tarbiya darsi o‘tkazilishi jismoniy sifatlar va sport malakalarini shakllantirish uchun yetarli deb bo‘lmaydi. Jismoniy tarbiya darsining funksional vazifasi faqatgina o‘quvchilarning sog‘ligi jismoniy bar-

kamolligini ta’minlashdan iborat bo‘libgina qolmay, balki uning yordamida jamiyki umuminsoniy va milliy qadriyatlar, shaxsiy xislatlar va fazilatlar, ko‘nikma va qobiliyatlar shakllantiradi. Ijtimoiy ong, odob-axloq, shaxs ma’naviyati va madaniyatni, vatanparvarlik, mehnatni ulug‘lash, bag‘rikenglik, katta-yu kichikni hurmatlash hamda haqgo‘ylik insonparvarlik, maqsadga erishuvchilik kabi xislatlarni tarbiyalashning asosiy amaliy vositasi jismoniy tarbiya darsidir. Shuning uchun ham uning mavqeyini ko‘tarish, majburiy fan sifatida soatlar hajmini ortirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Maktablarda jismoniy tarbiya darslarida futbol sportini rivojlantirish uchun bir nechta muhim usullar mavjud:

1. Futbolning asosiy texnikasi va qoidalari: Maktablar futbolni o‘rganishda asosiy texnikani o‘rgatish va qoidalarni tushuntirishga e’tibor beradi. Bu o‘quvchilarga o‘yin davomida sodda va amalga oshiriladigan qoidalarni tushuntirishga yordam beradi.

2. Intizom va davomiylilik: Jismoniy tarbiya darslarida va futbol o‘quvchilarga intizom va davomiylikni o‘rganishga imkoniyat berish kerak. Bu, futbol o‘yinida taklif qilingan

vaziyatlarga to‘g‘ri javob bera olish uchun muhimdir.

3. Jamoa bilan ishlash: Futbol jamoaviy o‘yin bo‘lib, jismoniy tarbiya darslarida jamoa ishini rivojlantirish va komandasozlikni o‘rganish juda muhimdir. O‘quvchilarga bir-biriga qarshi javobgarlik va jamoa a’zolari sifatida ishlashni o‘rgatish kerak.

4. Jismoniy rivojlanish: Futbol jismoniy rivojlanishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya darslarida futbolni amalda o‘rganish orqali o‘quvchilarning fiziksel rivojlanishlarini ta’minlash muhimdir.

5. Mustaqil tayyorgarlik: Masofaviy ishlar va fitnes darslari futbolning asosiy qismlaridan biridir. Bu darslar o‘quvchilarning kuchli bo‘lishi va badiiy yaxlitliklarini oshirishga yordam beradi. Shu sababli o‘quvchilarning uy sharoitida yoki maktabdan tashqari sport to‘garaklari, futbol seksiyalarida faoliyatini tashkil etishda mакtab jismoniy tarbiya jamoasi o‘z pozitsiyasini to‘g‘ri va tizimli tashkil etish kerak.

Maktablar bu usullarni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘quvchilarni futbol sport turini rivojlantirishga yordam berishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagи bilan tasdiqlangan “Futbol bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari to‘g‘risida”gi VM-173-sон Qarori.
2. Aslanova M. Boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 92 b.
3. Xo‘jayev F., Usmonxo‘jayev T. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari. – T.: O‘qituvchi. – 120 b
4. Differensial yondashuv asosida 13-14 yoshli futbolchilarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyasining ahamiyati. Toshpulatov S.K. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 /Issue 12 / 2022 ISSN:2181-1385 Cite-Factor: 0,89/SIS:1,12/ ASI-Factor:1,3 /SJIF:5,7/ UIF:6,1. 214-217
5. Akromov R.A. Yosh futbolchilarni tanlab olish va tayyorlash; O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1989. – 87 b.
6. Akromov R.A. Futbol / darslik: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zDJTI, 2006. – 406 b.

